
EHTIYOJMAND OILALARGA SAXOVAT YORDAMLARI KO'RSATILMOQDA



Ramazon oyi munosabati bilan Qo'shtepa tumanida ham yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, bemorlar xolidan xabar olinmoqda.

Jumladan, tuman hokimi Anvarjon Abdullayev mutasaddi rahbarlar bilan birgalikda Solijonobod mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi nogiron farzand tarbiyalayotgan Ozodaxon Boltaboyevaning xonadonida bo'lishdi. Ushbu oilaning ijtimoiy axvolidan xabar olinib, oziq-ovqat maxsulotlari yetkazib berildi.

Ramazon oyida bu kabi ezgu amal va xayrli yo'qlovlar tumanimiz bo'ylab davom etmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-03-25 14:20:53